



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

XALQ KULGISI TA'SIRIDA YARATILGAN DRAMATIK ASARLARDA ZAMONAVIY QAHRAMONLAR TALQINI

Xaitov Xamza Axmadovich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq kulgisi ta'sirida yaratilgan dramatik asarlarda zamonaviy qahramonlar talqinlari masalasida ilmiy – nazariy mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: estetika, tamoyil, drama, zamonaviy talqin, obraz, ramz, kinoyaviylik, dramada nasrga xos teranlik, ifodaviy bo'yoqlar, konflikt.

KIRISH: O'zbek xalqining asrlar davomida ko'z qorachig'iday ardoqlab, boyitib, ijtimoiy sharoitlar taqazosi bilan ijodiy qayta ishlab, takomillashtirib kelgan, ijro etilsa ming bir kechaga yetadigan, chop qilinsa yuz bir jild bo'ladigan kattakon xazinasi, merosi bor. Bu ulkan meros o'zbek dramalaridir. Dramaturg olamning badiiy modelini yaratar ekan, hayotning muayyan razmiy makoniy-zamoniy manzarasini adabiy-badiiy obraz sifatida ramz va kinoyaviylik bilan gavdalantirib tasvirlaydi. Dramaturgiya alohida, ayni paytda murakkab adabiy tur bo'lib, u bilan qo'lida qalami bor har qanday kishi ham shug'ullana olmaydi.

Drama inson ruhiy hayotini chuqur aks ettiruvchi, go'zal poetik tabiatga hamda katta badiiy umumlasmaga ega bo'lgan san'at asaridir. Bundan tashqari, kinoya subyekti nutq harakatining o'ta yashirin mazmunli, tagma'nosi yuqori darajada bo'lgan turlaridan foydalanishi mumkin. Bunday holatlarda so'zlovchi tinglovchining diqqatini ma'lum muddatga bo'lsa ham haqiqatdan yiroqlashtirish, uning "hushyorligi" ni susaytirish amalini qo'llaydi. Ba'zida bu maqsad uchun o'z noroziligini ochiq ifodalash amali ham qo'l keladi.

Adib muammoning ayni shu jihatlaridan ham yechim axtaradi. Teatr uchun asarlar ahlisizlar (sohaga begona kishilar) tomonidan emas, o'z egalari, ya'ni, dramaturglar shug'ullanishi lozimligini ta'kidlaydi. Zamonaviy o'zbek dramalarining estetik takomilida kinoya va istehzoli kulgining alohida o'rni va ahamiyati bor.

Adib muammoning ayni shu jihatlaridan ham yechim axtaradi. Teatr uchun asarlar ahlisizlar (sohaga begona kishilar) tomonidan emas, o'z egalari, ya'ni, dramaturglar shug'ullanishi lozimligini ta'kidlaydi. Zamonaviy o'zbek dramalarining estetik takomilida kinoya va istehzoli kulgining alohida o'rni va ahamiyati bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Garchi dramada nasrga xos teranlik, ifodaviy bo'yoqlar kuchli bo'lsa-da, voqealar bayoni g'oyat izchil, tarang, personajlar nutqi, bahsu munozarasi o'z-o'zidan dramatismni keltirib chiqaraveradi. Shu o'rinda Erkin A'zam dramalarining umumiy bir holatini qayd etmoq o'rinli: bu pyesalarda ochiq-oshkora, ehtirosu ziddiyatga boy shekspirona konfliktlar uchramaydi, voqelik sirtdan qaraganda, birmuncha sokin kechadi. Lekin asosiy kurash qahramonlar ruhiyati, botinida yuz beradi "Tanho qayiq yoxud devonaning xayoli" dramasida ayni shu jihat yorqinroq ko'rinadi desak, xato bo'lmas. Mana shu o'rinda biz konkret vaziyatda inson xulq-atvorining takrorlanmas xususiyatlar va xarakterga ega ekanligiga duch kelamiz. Bu takrorlanmaslik dastlab allaqanday tasodifiy ko'rinsa ham, tipiklik tushunchasining asl mohiyatini tashkil etadi. Har qanday obraz o'z tarixiy o'rni va mantiqiy rivojlanish yo'liga ega bo'lgandagina o'quvchini ishontirishi mumkin. Yuzaki qaralsa, drama komizm asosiga qurilgandek tuyiladi. Ammo, mazkur komizmda og'ir va fojiali voqealar yotadi. Shu sabab dramalarda komizm va fojiiyaviylik uyg'unlashadi.

H o k i m: - Bilasizmi, men ishni nimadan boshlamoqchiman?

S o b i q: -Qayoqdan bilay, nima ishga qo'l ursangiz, qumday to'kilib ketayotganmishku...

H o k i m: - Poraxo'rlikdan.

S o b i q: - (aftini burishtirib). Nimadan-nimadan-nimadan?

H o k i m: - Poraxo'rlikni tugatishdan. Chunki poraxo'rlik hukm surgan jamiyatning kelajagi voy bo'ladi!

Sobiq: - (artistona). Kechirasiz, poraxo'rlik bilan qanday kurashmoqchisiz? Qo'lini kestirasizmi?.. Unda dunyoni cho'loq bosib ketadi-ku, keyin siz kimga hokimlik qilasiz? Invalidlarga?

Insoniyat yaralganidan hozirga qadar uni muammolar tark etgani yo'q. Bosh masala yaralish muddaosi, maqsadini unutmaslik hamda sinov dunyoning intihosidan hisob onlaridan ogoh bo'lishga chorlaydi. Asrlar davomida odam ijtimoiy turmushdagi tilsim yechimini topishga intiladi. Har qanday vaziyatda ham masalani aqlu idrok bilan hal etish, vijdon hukmiga bo'ysunish maqsadga muvofiq sanaladi. Dramatik asarda kichik muammoga bee'tiborlik katta xatolarga poydevor bo'layotgani kompozision sathdan anglashilaveradi. Inson qiyofasining nursizlanib, xiralashishi uni saraobga yetaklaydi. Bu holat ongli mavjudotni qadr, e'tibordan mosuvo aylab, jirkanch mahluqlar doirasiga mahkum etadi. Xulosa shuki, kinoya adabiyotda juda qadim zamonlardayoq shakllangan. U ko'pincha real voqelikka noto'g'ri munosabatda bo'luvchi kishilarga nisbatan ilmoq qilish uchun ishlatilgan. Shuning uchun u badiiy usul vositalaridan hisoblanadi. Kinoya o'zbek adabiyotining barcha janrlarida o'z o'rniga ega. Kinoya orqali badiiy tafakkurda yangilanishlarni ham kuzatish mumkin. Uning badiiy tafakkurni yangilashdagi ahamiyati shundaki, kinoya o'zida voqelikka obrazli munosabatni namoyon etadi. Kinoya ijtimoiy ruhiy vaziyatlarni, ziddiyatli holatlarni baholashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan kinoya dramatik asarlar taraqqiyotini o'rganishda muhim vosita rolini o'tay oladi. Kinoya mafkuraviy qoliplarda ham ifoda etiladi. Zamonaviy o'zbek dramalarida kinoyaning o'rni va vazifalari yanada kengaygani kuzatiladi. Komediya va intermediya janrlarida lof ham alohida ahamiyatga ega.

Estetika ilmida baxt va fojia inson hayotidagi go'zallik va xunuklik, nur va zulmat kabi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil kategoriya sifatida o'rganiladi. E.Umarovning yozishicha: "Fojialilik va kulgililik aslida bir-biriga zid tushunchalar, lekin bu zidlik mutloq ma'noda amal qilmaydi. Ayni paytda, ular bir-birining mag'ziga singib, biri ikkinchisiga o'tib turadi. Fojiali va kulgili narsalar, voqea-hodisalarning o'zaro bog'liqligi ular o'rtasidagi chegaralarning harakatchanligi allaqachon nazariy risolalardan va oddiy hayot tajribasidan ma'lum. Sharq xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotida ham insonning baxti va fojiasi asosiy diqqat markazida bo'lgan. Ayniqsa, didaktik adabiyotda inson baxti bilim va donishmandlikda, baxtsizligi esa jaholat va nodonlikda deb talqin etiladi.

Fojiaviylik va kulgililik boshqa estetik tushunchalardan qanchalik farq qilmasin, ularni go'zallik va xunuklik kabi ijtimoiy-estetik orzular bilan bog'liq holda, tarixiy va nisbiy tabiatini inobatga olgan holda mushohada qilish zarur bo'ladi.

Kulish - "koinot gultoji" bo'lmish insonning insoniylik fazilatlaridan biri. Kulgida ruhiy va jismoniy qo'zg'olish hodisasi qo'shilib ketadi. Shuni ta'kidlash joizki, ibtidoiy jamoada yashagan odamdan ko'ra, madaniylashgan jamiyatda yashayotgan odamning kulgisida katta tafovut bor: neandartal odam o'z raqibini ko'pincha tosh va to'qmog'i bilan mayib etib kulgan bo'lsa, keying jamiyatlarda odamlar raqibini so'z vositasi bilan yengib kulganligi, ma'naviy ustunlikka erishganligini eslash kifoya. Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichida inson ongi, ruhiyatining kulgisi o'sib, o'zgarib borganligi uchun kulgining ham tabiati o'zgarib, boyib borgan. "Inson kayfiyati qay darajada rang-barang bo'lsa,-deydi M.Qo'shjonov - uning kulgiga moyilligi ham shu darajada rang-barang". Bu fikrni sho'ro kinokomediya nazariyasi va tarixi mutaxassisi R.Yurenovning kulgi xillari haqidagi quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "Kulgi quvonchli va ma'yus, yoqimli va qahrli, aqli va ahmoqona, g'ururli va dilkash, kibrli va xushomadli, nafratli va hadikli, tahqirlovchi va ruhlantiruvchi, surbetlarcha va andishali, do'stona va adovatli, kinoyali va oqko'ngil, achchiq va sodda, mayin va qo'pol, serma'no va besabab, tantanavor va bahonali, behayo va tortinchoq bo'lishi mumkin. Bu ro'yxatni yana davom ettirsa bo'ladi: shodiyona kulgi, g'amgin, asabiy, masxaralovchi, fiziologik, hayvoniy kulgi. Hatto, umidsiz kulgi ham bo'lishi mumkin. Kulgi qanchalik serjilo bo'lsa, uning adabiyot

va san'atidagi inikosi ham shunchalik xilma-xil. Kulgining estetik jihatdan naqadar boyligini tadqiq etgan Yu. Borev ishlarida jahon madaniyatining ulkan san'atkorlari ijodida yaqqol ko'zga tashlanib turuvchi kulgi olamni estetik o'zlashtirish va tasvirlashdagi o'ziga xos usulga aylanganligi misollar bilan ko'rsatiladi. "Yumor va –satira kulgining ikki qutbi. Ular orasida esa kulgining olam-jahon tovlanishlari, ma'nolari bor . So'z san'atida sof va samimiy kulgi hamisha qadrlanib kelgan. Badiiy barkamol, kishini hayajonga soladigan, qahqaha otishga undaydigan komik xarakterdagi asarlar osonlikcha yaratilmaydi. Avvalo, hamma ham payqayvermaydigan nozik hayotiy yumorni his qilish, uni kitobxonga o'z qiymatini yo'qotmagan holda yetkazish adibdan o'tkir nigoh va mahorat talab qiladi. Siyqasi chiqqan iboralar, takroriy piching gaplar o'quvchi g'ashiga tegadi, kitob sahifasini behuda band etadi. Xalq kulgisining boy adabiy merosidan, xalq maqol, matal, askiya, lof, latifalari ta'sirida yaratilgan asarlarda kulgi ruhi alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov bu haqda shunday deydi: "Ular ijodkor nutqining bezagi, qahramonlarni jonlantirishning muhim omili bo'lib,... biror yozuvchi yoki shoir ijodida xalq maqol va matallari, yumuq iboralari, og'zaki nutq usuliga xos ifoda ham oborotlarning qo'llanishidan tashkil topadi" . Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, xalq kulgi san'ati ta'sirida yaratilgan asarlarda kitobxonni ataylab kuldirish maqsad qilib olinmaydi. Muallif kuzatuvchi va baholovchi shaxs sifatida mohirlik bilan eng tang vaziyatlarda ham asar ruhiga yumor va hajvni singdirib yuborganiga guvoh bo'lamiz. Ijodkor voqealar bayonida, turli holatlar tasvirida topqirlik bilan latifanamo va askiyalarga xos ibratli va ma'nodor iboralarni qo'llashi adib sifatidagi iqtidorning alohida qirrasidir.

Ba'zan muloqot tortishuvli, munozarali kechadi va bunda suhbatdoshlar bir-biriga kuchli ruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar. Shunday holatlarda muloqotning kinoyali mazmunda kechishini ta'minlovchi qochirimlar, o'xshatmalar, maqollar, naqlar va boshqa turdagi ekspressivlikni ifodalovchi nutqiy tuzilmalarga murojaat qilinadi. Ba'zan kinoya sub'ekti nutq harakatining o'ta yashirin, mazmunli, tagma'nosi yuqori darajada bo'lgan turlaridan foydalanishi mumkin. Bunday hollarda so'zlovchi tinglovchining diqqatini ma'lum muddatga bo'lsa ham haqiqatdan yiroqlashtirish, uning hushyorligini susaytirish amalini qo'llaydi. Ba'zida o'z noroziligini ochiq ifodalash ham qo'l keladi. Kinoya turli mazmundagi nutqiy harakatlarni muloqot matnida faollashtiruvchi uslubiy vositalardan biridir. "Kinoyali nutqiy harakatlar bajarilishidan ko'zlanadigan maqsad– tinglovchiga ta'sir o'tkazish va uni ushbu ta'sir doirasida hosil bo'ladigan faoliyatga undashdir" . Zero, shaklan ifodalangan va nutqiy harakat maqsadi bilan bog'liq bo'lgan botiniy ma'nolar qarama-qarshiligisiz kinoya mazmunidagi matn yaratilmaydi.

Hayot- kurashdan iborat. Bizni o'rab turgan olamda hamma narsa uzluksiz rivojlanishda, to'qnashuvda va shuningdek hilma-hil harakat qiluvchi kuchlar o'zaro bog'langandir. Eng oddiy misollardan boshlaylik, chunonchi, uxlash bilan uygo'nishni olib ko'raylik. Yashash, mehnat qilish zaruriyati kishini issiq o'rindan turib, ish kunini boshlashga majbur etadi. U uyqusini yozishi, ya'ni bo'shashuvchanlikni, loqaydlikni, paylarining tinchini yozishi, yuvinish, kiyinish, ish boshlash uchun kuch topishi kerak. Bir qarashda bunday harakatda drammatizm yo'qday tuyuladi. Lekin eng muhimi- bevosita hayotga nazar tashlash, hayot materialini konkret baholash, hayot parchasini mujassamlashtirish, uchun ifodali vositalar tanlashdir. Dramalar ijodkorga xuddi shu imkoniyatni yaratadi.

Ya sh i l Ya p r o q: - (og'zining tanobi qochib). Yaqinda sizning yubileyengiz bo'larkanlar. Shunga ruxsatlari bilan bir nima qoralab keluvdim. Ko'rib bersangizlar...

S o b i q: - (ensasi qotibroq). Qani, o'qing-chi...

Ya sh i l Ya p r o q: - (papkasidan bir varaq qog'oz olib o'qiydi). Otamiz!

S o b i q: - (tomog'iga chertib). Bu ma'noda?

Ya sh i l Ya p r o q: - (kapalagi uchib). Yo'g'lar-e!.. Padar ma'nolarin-da.

S o b i q: - Ha-a, uzr, uzr...

Ya sh i l Ya p r o q: -Otamiz! Bu – sarlavhalari...

S o b i q. She'ringiz nechta o'zi?

Ya sh i l Ya p r o q: - Bittalar, bittalar...

S o b i q.: -Xo'p, o'qing-chi. Faqat "Hoy-hoy, otamiz, toshni kesar boltamiz" bo'lmasin-a? Ularning davri o'tib ketgan .

Dunyodagi hodisalarni inson taqdiri bilan uzviylikda tasvirlash, tarixiy haqiqatni badiiy gavdalantirish, fojeiy holatlarni qiyosiy aspektida tahlil etish tamoyili ortadi. Keltirilgan dramatik parchada hamma davrlarda bo'lgani kabi bizning zamonamizda ham uchrab turadigan Yashil Yaproq kabi soxta ijodkorlarning laganbardorligini ifodalash orqali kinoyali kulgi hosil bo'lgan.

E r k a k: - (xona ichiga ko'z yugurtirib chiqadi). Sichqonlar hassa tayanib qolibdi, o'ziyam.

A y o l: - Ko'rdingizmi, endi eshikni orqasidan yopib qo'ying. Boring, Xudo xayr bergur, odamniyam kalovlatib yubordilaring!.. (Eshikni yopmoqchi bo'ladi.)

E r k a k: - Bismillohu Rahmonir Rahiym. (Ichkariga kiradi.) Ochilgan eshikni yopishga shoshilmang, oyim.

A y o l: - Nima? Es-pesingiz joyidami, otam tengi odamga qanaqasiga "oyi" bo'lay? Tovba!!!

E r k a k: - Bizning Farg'ona tomonlarda ayollarimizni shunday alqaymiz-da, oyim. Aybga buyurmaydilar.

A y o l: - Farg'onadan ham gadoy chiqibdi-da, savil!

Jismoniy kamchiliklar (qarilik, semizlik, oqsoqlik, kaltalik) bo'rttirib ko'rsatiladigan kulgili sahna asarlari ham uchrab turadi. Bu kabi dramalar odatda masxaraboz xotinlar tomonidan ijro etiladi. Ijrochilar dramalarning chinakam kulgili va zavqli chiqishiga harakat qilib, uvada chopon kiyib, savatday beso'naqay salla o'rab, yuzlariga un, qorakuya yoki rang surtib sahnaga chiqqanlar. Bu toifa sahnalarni ba'zida ikki kishi ijro etib, ular o'rtasida dialog hosil bo'lgan. Erkaklarning xotin qiyofasida, ayollarning erkak qiyofasida o'ynashi tasodifiy hol emas. Feodalizm ideologiyasi xotinlar bilan erlarning birga ko'ngil ochishi, o'yin-kulgi qilishini qat'iy taqiqlar edi. Shuning uchun ham erlar xotinlarning, xotinlar erlarning badiiy obrazini ko'rish, bir-birlariga munosabatlarini bildirishni istardilar. Yuqoridagi dramatik ifodalar ana shu tabiiy istak asosida yuzaga kelgan. Ularda kishi harakterining ma'lum bir tomoni bo'rttirib ko'rsatiladi.

Ba'zan bu bo'rttirma hajviy tus olib, dramaning g'oyaviy mohiyatini chuqurlashtiradi. Masalan, masxaraboz xotinlar shu tipdagi ba'zi bir asarlarda xotinboz erkak obrazini yaratib, ayrim erlarning qo'pol qiliqlari, xotin-qizlarga yomon ko'z bilan qarashini hajv qiladilar. Bunday tasvirlar asosida ayollarning er bilan xotin o'rtasidagi tengsizlikka bo'lgan norozilik kayfiyati yotganligi ravshan sezilib turadi. Shu tariqa ayollar nutqidagi uydan chiqmagan, ko'cha ko'rmagan soddadil obraz nutqi yumoristik tasvirning paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Insondagi bu xususiyat bir qarashda tarjima talab qilmaydigandek tuyuladi.

XULOSA: Kulayotgan odamni ko'rishimiz bilanoq besabab, hatto, uning tilini bilmasak-da bizning ham yuzimizga tabassum yuguradi. Biroq, shunday kulgilar, ularning vazifasi sizga xush kayfiyat berish bilangina chegaralanmaydi, uning zamiridagi g'oya, kinoya, fikr sizni o'ylashga, ma'nau "uyg'onish"ga chorlaydi.

Milliy xarakter ma'lum moddiy asosda yaratilib, muayyan hayot sharoitining in'ikosi hisoblanadi. Shuning uchun ham obrazning milliy xarakterini o'sha millatning hayotini, milliy tarixini, o'ziga xosligini, milliy, madaniy va adabiy an'analarini o'rganish orqali to'g'ri tushunish mumkin. Aynan so'z o'yinlariga asoslangan "aqli" yumor deyarli barcha davrlarning adabiyotida u yoki bu ko'rinishda aks etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshbekov Sh. Yer baribir aylanaveradi. Drama. –Toshkent: Adabiyot, 2020. –B. 76.

- 2.Абдулла Қаҳҳор. Комиклик ва фожиавийлик уйғунлиги мақоласидан // “Ўзбек тили ва адабиёти” журналы. -Тошкент: 2007.– №4.– Б .53.
- 3.Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // “Ўзбек тили ва адабиёти журналы. Тошкент: 2007. -Б. 58-60.
- 4.Боймирзаева С. Матнда киноя мазмунини ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2008. №4. -Б.112.
- 5.Boshbekov Sh. Yer baribir aylanaveradi. Drama. Toshkent: Adabiyot, 2020. –B. 82.
- 6.Jo’ra Mahmud. Najot qirg’og’i. komediya. -Toshkent: Adabiyot, 2020. –B. 100.
- 7.Азнаурова Э. Бадий таржиманинг асосий проблемалари.Таржима санъати (Мақолалар тўплами). Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1961. -Б. 8-9.